

## **ARAB TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMADA DUCH KELINADIGAN BA'ZI QIYINCHILIKLAR**

O'zbekiston davlat Jahon tillari universiteti  
Tarjimonlik fakulteti 2-kurs talabasi  
**Suleymanova Nazerke Usenovna**  
Suleymanovanazerke586@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada rab tilidan o'zbek tiliga bolalar yoki arab tilini endi o'rghanayotganlar uchun mo'ljallangan hikoya va ertaklarning tarjima jaroyinida uchraydigan ba'zi bir qiyinchiliklari tahlil qilingan. Asosiy e'tibor lingvistik tafovutlar, madaniy mazmunni moslashtirish, harfiy va ma'noviy tarjima o'rtasida muvozanatni saqlash, hamda terminologik muammolarga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** Arab tili, tarjima jaroyoni, lingvistik qiyinchiliklar, madaniy moslashuv, terminologik muammolar.

**Abstract:** This article analyzes some of the challenges encountered in the process of translating stories and tales from Arabic into Uzbek, aimed at children or beginners learning the Arabic language. The main focus is on linguistic differences, adapting cultural content, balancing literal and meaningful translation, and addressing terminological issues.

**Key words:** Arabic language, translation process, linguistic challenges, cultural adaptation, terminological issues.

**Аннотация:** В данной статье анализируются некоторые трудности, возникающие при переводе рассказов и сказок с арабского на узбекский язык, предназначенных для детей или начинающих изучать арабский язык. Основное внимание уделяется языковым различиям, адаптации культурного контекста, балансу между буквальным и смысловым переводом, а также терминологическим проблемам.

**Ключевые слова:** Арабский язык, процесс перевода, лингвистические трудности, культурная адаптация, терминологические проблемы.

Darhaqiqat, arab tilida tarjima qilingan matnlar o'zbek tiliga moslashtirish jarayonida lingvistik, madaniy va uslubiy qiyinciliklar yuzaga keladi. Ushbu maqolada arab tilini o'rghanish uchun Enes Bali tomonida jamlangan "Boshlang'ich daraja matn o'qish kitobi"ni tarjima qilish jarayonida duch kelgan ba'zi qiyinchiliklar tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu hikoyalar orqali bolalar va yoshlar tarbiyasida axloqiy qadriyatlar, bilimga ishtiyoq va tabiatni sevish targ'ib qilinadi. Arab tilidagi hikoyalar, matnlar asosan axloqiy qarashlarni o'z ichiga qamab oladi. Tarbiyaviy hikoyalar orqali bolalarga axloqiy va insoniy qadriyatlar uqtiriladi. "Biz kattalaga yordam beramiz" hikoyasida Xitam va Sobit keksa kishiga yordam berib, kattalarga, yordamga muhtoj odamlarga yordam berish keraklogining ahamiyati yoritilgan. "Yer" hikoyasida esa, ota bolalariga mehnatning qadr-qimmati qanchalar muhim ekanligi takidlanaydi: "Yer bu-haqiqiy xazina. Uni asrang va mehnat qiling".

Tarjima jaroyonidagi tajribalar va xulosalar asosida ushbu mavzudagai qiyinchiliklar tahlil qilinadi: Arab va o'zbek tillari grammatik tuzilishidagi farqlar tarjima jarayonida qiyinchilik tug'diradi.

**1.Jins kategoriyasi va fe'l shakllaridagi tafovutlar:** Arab tilida jins kategoyasi mavjud, leki o'zbek tilida bunday xususiyat mavjud emas. Masalan, o'zbek tilida 3-shaxs birlik uchun erkak va ayol jinsi uchun "u" olmoshi ishlatiladi. Ammo arab tilida muzakkar jins uchun "هُوَ" (Hu), muannas jins uchun "هِيَ" (Hi) ishlatiladi. Shuningdek, arab tilida fe'llar jins va son bilan o'zgaradi. "قَالَ الرَّجُلُ: تَقْضَلَا" iborasidagi ikki erkak kishiga qaratilgan bo'lib o'zbek tilida bunday xususiyat bo'limganligi uchun kontekstga moslashtirib "Marhamat" shaklida ishlatamiz.

**2.Tilning sintaktik strukturasidagi farqlar:** O'zbek tilida gap odatda ega bilab boshlanib, keyin kesim keladi (SVO tartibi), ya'ni birinchi subyekt (ega), keyin predikat (kesim) o'radsida aniq tartib mavjud. Ammo, arab tilida odatda gap kesim ya'ni fe'l (VSO tartibi) bilan boshlanadi. Taniqli arab tilshunosi Muhammad al-Baytariy arab tilining sintaksisi, gap bo'laklarining tartibi haqida salmoqli ishlar olib borgan va (الطريقة العربية في النحو) "المقالات في اللغة العربية" (Arab tili haqida maqolalar) va (Arab tili grammatikasi usullari) asarlarini yozgan. Masalan,

"عَادَ ثَابِثٌ وَخَتَّامٌ مِنَ الْمَدْرَسَةِ" jumlasini o'zbek tiliga tarjima tajima qilganimizda "Sobit va Xitam mактабдан qaytdi" tarzida gap bo'laklarining tartibi o'zgaradi. Har bir til o'z mantiqiy tuzilmasiga ega. Tarjima qiluvchining vazifasi mazmunni bir til tuzilmasidan boshqasiga o'tkazishdir.[1]

**3.Morfologik farq ya'ni kelishik kategoriyasi:** O'zbek tilida kelishiklar so'zlarning ma'no va sintaktik vazifalarini ifodalashda ishlatiladi. Arab tilida esa bu kategoriya mavjud emas. Arab tili sintaksisida so'zlar o'zaro bog'lanishini gapning tartibi va ba'zi grammatik vositalar, odatda predloglar yordamida ifodalanadi. Masalan, "عَادَ ثَابِثٌ وَخَتَّامٌ مِنَ الْمَدْرَسَةِ إِلَى الْبَيْتِ" Sobit va Xitam mактабдан uyga qaytdi tarzida tarjima qilamiz. Arab tilida kelishiklar yo'q bo'lganligini sababli chiqish va jo'nalish kelishiklari "إِلَى" "من" "وَ" "وَ" "عَادَ" "ثَابِثٌ" "وَخَتَّامٌ" "مِنَ" "الْمَدْرَسَةِ" "إِلَى" "الْبَيْتِ" predloglari yordamida ifodalangan.

**4. Madaniy mazmumlarni moslashtirishdagi qiyinchiliklar:** Ba'zi arabcha iboralar bevosita tarjima qilinganida o'zbek tilida tushunarsiz bo'lishi mumkin. Masalan, "بارك الله فيكما" (Alloh sizlarga baraka bersin) kabi diniy iboralar kontekstga qarab o'zbek tilida ham asosan diniy mazmunni saqlab qolgan holda ishlatiladi.

Ba'zi matnlardagi madaniy elementlarni tushuntirishni talab qilinadi. Masalan, "جمل" (tuya) arab madaniyati uchun odatiy tushuncha bo'lsa-da, o'zbek kitobxoni uchun tushunarsiz bo'lishi mumkin. Shuning uchun qo'shimcha izohlar talab qilinadi. Tarjima nafaqat so'zlarni, balki madaniyatni ham ko'chirish jarayonidir [2].

**5.Harfiy va ma'noviy tarjima o'rtasidagi muvozanat:** Arab tilidagi iboralarni to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilish ko'pincha qiyinchilik tug'diradi. Masalan, "دارُ الدَّرْسِ" Dars uyi deb tarjima qilishda harfiy ma'nodan ko'ra mazmuniy ifoda ustun qo'yilgan.

**6.So'zlarning takrorlanishi ya'ni polisindetsiya muammosi:** Arab tilida gaplar odatda "وَ" bog'lovchisi bilan bog'lanadigan holatlar ko'p, lekin buni o'zbek tiliga tarjima qilayotganda to'g'ridan to'g'ri tarjima qilinmaydi. Bog'lovchi o'rnida boshqa

في يوم من الأيام ، مرّ فار صغير قرب اسد نائم ، واز عجه، فغضب ”الاسد و هم باكله“ jumlasini “ Kunlardan nir kuni kichkina sichqon sherning oldidan o‘tdi va uni bezovta qildi va sher g‘azablandi va uni yemoqchi bo‘ldi” tarzida emas balki “Kunlardan bir kuni kichkina sichqon uhlayotgan sherning oldidan o‘tib uni bezovta qildi. Shunda sherning jahli chiqib uni yemoqchi bo‘ldi” tarzida tarjima qilamiz.

**7. Polisemiya ya’ni so‘zlarning ko‘p manoligi:** Har bitta tilda bo‘lganligi kabi arab tilida ham ko‘p ma’noli so‘zlar mavjud va bu jihat tarjima jarayonida bir qancha qiyinchiliklarga olib keladi. Masalan ,

”دخلنا المركز ، وجدنا أيامنا شبابيك كثيرة“ jumlasidagi fe’linig ”topmoq“, ”duch kelmoq“, ”bor bo‘lmoq“ degan ma’nolari mavjud. Lekin bu kontekstda ”Bo‘limga kirdik va oldimizda ko‘p derazalar va xodimlarga duch keldik“ tarzida tarjima qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, arab tilidan o‘zbek tiliga tarjima jarayonida duch keladigan qiyinchiliklar ko‘plab lingvistik, madaniy va uslubiy masalalarni o‘z ichiga oladi. So‘zlarning ko‘p ma’noligi, gramatik farqlar, madaniy kontekstni moslashtirish va harfiy va ma’noviy tarjima o‘rtasidagi muvozanat kabi qiyinchiliklar tarjimonning murakkab vazifasini ta’kidlaydi. Ayniqsa, bolalar adabiyotini tarjima qilishda, bu muammolar nafaqat tilning o‘ziga xosliklarini, balki madaniy farqlarni ham hisobga olishni talab qiladi. Tarjima jarayonida har bir so‘z va ibora kontekstga mos ravishda ishlatilishi zarur, chunki har bir tilning o‘z tuzilishi va ma’nosи mavjud. Arab tilidan o‘zbek tiliga tarjima jarayonida duch keladigan qiyinchiliklar ko‘plab lingvistik, madaniy va uslubiy masalalarni o‘z ichiga oladi. So‘zlarning ko‘p ma’noligi, gramatik farqlar, madaniy kontekstni moslashtirish va harfiy va ma’noviy tarjima o‘rtasidagi muvozanat kabi qiyinchiliklar tarjimonning murakkab vazifasini ta’kidlaydi. Ayniqsa, bolalar adabiyotini tarjima qilishda, bu muammolar nafaqat tilning o‘ziga xosliklarini, balki madaniy farqlarni ham hisobga olishni talab qiladi. Tarjima jarayonida har bir so‘z va ibora kontekstga mos ravishda ishlatilishi zarur, chunki har bir tilning o‘z tuzilishi va ma’nosи mavjud[3].

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Ibn Jinni, al-Xasais (Xususiyatlat)
2. Nuh Zarruq
3. G’. Salomov , Tarjima nazariyasiga kirish, 155- bet.
4. <https://en.wikipedia.org>.
5. Mirqobil Xasanov, Arab tili, 2019